**Аннотация:** в международной практике проводится множество исследований, направленных на совершенствование и разработку методологии проведения внутренних аудитов и международных стандартов внутреннего аудита. В этих исследованиях в статье исследуются особенности использования международных стандартов внутреннего аудита в деятельности Службы внутреннего аудита бюджетных организаций, соблюдение установленных требований и существующие проблемы при их внедрении в нашей республике, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** бюджет, бюджетные организации, аудит, внутренний аудит, фонды, контроль, государственный бюджет, бюджетная система, финансирование, доходы бюджета, расходы бюджета, местный бюджет, налогово-бюджетная политика.

## KIRISH

Jahon amaliyotida ichki audit xizmati faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Ichki Auditorlar Instituti (The Institute of Internal Auditors, IIA) mavjud. Ushbu xalqaro tashkilot "170 dan ortiq davlatlarning 185 mingdan ortiq a'zolarini o'z ichiga birlashtiradi" [1]. Iqtisodiyotlarning chuqur integratsiyalashuvi va globallashuvi xalqaro amaliyotda ichki auditning xalqaro standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki auditning korporativ boshqaruvdagi rolining ortib borishi natijasida alohida tuzilma sifatida shakllanishi jahon amaliyotida ichki audit biznesni himoya qilish, risklarni minimallashtirish va kompleks nazoratni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning tajribasi va sohadagi ilmiy yutuqlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, budget tashkilotlarida ichki audit faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro talablarga uyg'unlashtirish, ichki audit institutining faoliyat samaradorligini oshirish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va investorlarni jalb etishda ichki audit xizmatining biznes risklarini pasaytirishga qaratilgan mavqeyini oshirish muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ichki auditning nazariy va huquqiy asoslari, ichki audit xizmatini tashkil etish mexanizmlarini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish hamda ichki audit samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida "xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni



rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish” [2] muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlash ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy tizimni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish, xalqaro standartlar asosida ichki auditni tashkil etish va uni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida budget tashkilotlarining ichki audit xizmati hisob-kitoblari o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishiga, ularning iqtisodiy faoliyati yaxshilanishiga xizmat ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy jihatdan mustahkamlashda ichki audit xizmatining o'rni beqiyosdir. Shu bois budget tashkilotlarining ichki audit xizmatini ilmiy jihatdan o'rganish hamda iqtisodchi olimlarning fikrlarini keltirib o'tish joiz. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim Voropaev Yu.N. “Ichki auditning asosiy maqsadi – subyekt menejerlariga zimmalaridagi majburiyatlarni samarali bajarishda, korxonada va uning tarkibiy tuzilmalari oldida turgan maqsad va vazifalarga eng samarali tarzda erishish uchun korxonada aktivlaridan samarali foydalanayotganlariga yetarlicha ishonch hosil qilishlarida yordam berishdir” [3] deya ta'kidlab o'tgan. Demak, yuqoridagi fikrga e'tibor qaratsa, haqiqatan ham ichki audit xizmatining maqsadi korxonada sodir bo'layotgan barcha muomalalar to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilish hisoblanadi.

S.I. Jminkoning fikriga ko'ra, “Ichki auditning moliyaviy hisobotni tekshirish va soliqlarni minimallashtirishga yo'naltirilgan funksiyasi korxonada faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olish funksiyasiga ko'chib o'tayotgani kuzatilmoqda” [4].

Shuningdek, A.K. Ibragimov ichki auditning ahamiyati va zarurati boshqaruv funksiyalarini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lishini ta'kidlab o'tgan [5].

Bundan ko'rinib turibdiki, ichki auditning mohiyati, asosan, korxonada boshqaruv tizimiga ko'maklasha oladigan faoliyat turi ekanligi bilan namoyon bo'ladi.

Bu borada professor A.A. Karimov tashqi va ichki auditning asosiy ikkita o'zaro farqli jihati mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, tashqi audit korxonaning moliyaviy hujjatlari to'g'riligini tasdiqlashga, ichki audit esa asosiy e'tiborni korxonaning mavjud nazorat tizimi va uning turli bo'linmalaridagi ishlab chiqarish, marketing, savdo-sotiq, moliya va hokazolarning holatini aniqlashga asoslanadi; ikkinchidan, tashqi audit, birinchi navbatda, korxonada mijozlari hisoblangan iste'molchi, kreditor, soliq organlari va boshqa foydalanuvchilar manfaatlarini inobatga oladi. Ichki audit, birinchi navbatda, korxonada boshqaruv manfaatlariga qaratilgan bo'lib, samarali ichki audit tizimi tashqi auditga sarflanadigan xarajatlarni qisman kamaytirishga xizmat qiladi [6].

S.I. Jminko tomonidan ichki auditning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan: birinchidan, mustaqillik va obyektivlik. Mustaqillik – bu tushuncha bir muncha tashkiliy mazmunga ega va ichki audit xizmatining korxonada bo'ysunuvchanligi darajasidan kelib chiqib aniqlanadi. Obyektivlik tushunchasi ichki auditorning shaxsiy fazilati – baho va xulosa berishda hissiyotga berilmasligi tushuniladi. Ikkinchidan, kafolatlash va maslahatlar berish. Ichki audit faoliyatining mohiyati – mijozlarga kafolat va maslahatlar berish ko'lamini sezilarli darajada kengaydi va bugungi kunda quyidagi sohalarni o'z ichiga olgan: tavakkalchilik xavflarini boshqarish, ichki nazorat, korporativ boshqaruv. Kafolatlarni taqdim etish mustaqil ravishda baholashni amalga oshirish va tizimlar, jarayonlar, muomalalar samaradorligi haqida fikr bildirish maqsadida auditorlik dalillarini obyektiv tahlil qilishdan iborat. Maslahat berishning kafolat berishdan asosiy farqi shuki, maslahat taqdim etilishi kerak bo'lgan holatlarda auditorning ish hajmi mijoz tomonidan belgilanadi [7].

Umuman olganda, ichki audit turli funksiyalarni bajaradi. Jumladan, A.K. Makalskayaning fikricha, ichki audit funksiyalari:

- moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga doir bo'lgan barcha mavjud ma'lumotlarni yuqori rahbariyatga uzatish;
- ichki nazorat samaradorligini oshirish;
- xo'jalik yurituvchi subyekt bo'limlari hisobotlarining ishonchligini tasdiqlash [8].

R.D. Do'smurotov auditorlik faoliyatini 3 xil rivojlanish bosqichida shakllanishini ta'kidlab o'tgan.

1. Tasdiqlovchi audit – bunda, asosan, hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi.  
2. Maqsadli sistemali audit – bu bosqichda muomalalarni nazorat qilish tizimini kuzatish imkoniyati yaratiladi.

3. Tavakkalchilikka asoslangan audit – tizimni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi [9].

Ichki auditorlar instituti (The institute of internal auditors) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, “ichki audit – bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil va xolis kafolatlar va maslahatlar berish faoliyatidir. Ichki audit risklarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli va izchil yondashish orqali tashkilotga o'z maqsadlarini amalga oshirishda ko'maklashadi” [10].



Keltirilgan ta'riflarga asoslanib quyidagicha fikrga kelish mumkin, ichki audit xizmatining asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy va boshqa faoliyatining turli yo'nalishlarini tekshirishdan, ularni erkin va xolis baholashdan iboratdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida budget tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishni rivojlantirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash lozimki, ishonchli va samarali ichki nazorat tizimini yaratish va samarali ishlashini ta'minlash uchun ichki auditorlar emas, balki subyekt boshqaruvi mas'uldir. Ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tashkilot rahbarining vazifasi hisoblanadi, qanday bartaraf etilishini nazorat qilish esa ichki audit xizmatining zimmasida bo'ladi. Demak, budget tashkilotlarining taftish komissiyasi va ichki audit xizmati samaradorlikka erishish va faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy nazorat olib boruvchi tuzilmalardir. Shu sababli ichki audit xizmati va taftish komissiyasi tashkil etilishi va faoliyat yuritishi jihatidan keskin bir-biridan farq qiladi hamda ular o'rtasidagi farqli jihatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Ichki audit xizmati va taftish komissiyasi faoliyatidagi farqli jihatlari<sup>1</sup>.

Ko'rsatkichlar	Taftish komissiyasi	Ichki audit xizmati
O'tkazish davriyligi	Yil davomida kamida bir marta	Har chorakda va yillik
Maqsad	Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish	Korxonaning moliyaviy holatini baholash va kuzatuv kengashini ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash
Vazifalar	Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish	Kamchiliklar o'z vaqtida aniqlanishi va bartaraf etilishini amalga oshirish
Subyektlar	Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati	Jamiyatning boshqaruv tizimi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati
Tashkil etilishi	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi	Kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra
Huquqiy bazasi	"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun	"Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom
Faoliyat natijasi yuzasidan hisobot	Taftish komissiyasi xulosasi	Ichki audit xizmati hisoboti (yig'ma hisobot)
Taqdim etish shakli	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga	Kuzatuv kengashiga


Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ichki audit xizmati kuzatuv kengashiga bo'ysunadi, taftish komissiyasi esa aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga bo'ysunadi. Taftish komissiyasining funksiyalari ichki auditga qaraganda farq qiladi. Shuning uchun bugungi kunda amaliyotda ichki audit xizmati kuzatuv kengashiga, taftish komissiyasi esa to'g'ridan to'g'ri aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga bo'ysunadi. Shu sababli ichki audit bo'limiga majburiyatiga qo'shimcha ravishda taftish komissiyasining ish natijalarini ham nazorat qilishni kiritish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda respublikamizda ichki audit xizmatini tashkil etishda xorijiy investor ishtirokidagi subyektlarda ularning ahamiyatini, shu bilan birga, har bir subyektda ichki audit xizmatining javobgarligini yanada oshirish kerak. Xizmat tomonidan taqdim etiladigan yig'ma hisobot natijalar asosida kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra ijroiya organi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va ichki audit-

1 Муаллиф томонидан тузилган.



ning mustaqilligi prinsipini yanada kuchaytirish lozim. Natijada ichki auditorlarga e'tibor yanada oshadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganish natijalariga qiziqish uyg'onadi.



1-rasm. Ichki audit xizmatini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish tartibi<sup>2</sup>.

Auditorlik xizmatini quyidagi ichki audit reglamentlari bilan ta'minlash lozim: ichki audit xizmati nizomi, mutaxassislarning lavozim yo'riqnomalari, bo'lim va uning mutaxassislarning kalendar rejaları, auditorlik tekshiruvlari savollari bo'yicha uslubiy qo'llanmalar, ichki audit standartlari, ichki audit jarayonlari bo'yicha normalar (qoidalar), ichki audit uslubi va auditorlik dalillarini olish bo'yicha uslubiy yo'l-yo'riqlar, auditorlik tekshiruvlari va natijalarni tatbiq etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.

Ichki audit boshqaruvning maqsadlariga erishishni ta'minlash (kafolati)ga yo'naltirilgan boshqaruv vositasidir. Buning uchun ichki audit rahbariyatni olib borilgan tahlil, muayyan bo'lim faoliyatining samaradorligini baholash natijalari, tavsiya va axborot bilan ta'minlaydi. Ichki audit natijalaridan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati mavjud resurslar va ishchi qonunlar doirasi boshqaruv va joriy ishlarni olib borish maqsadida foydalanadi.

Ichki audit bo'limi yoki xizmati ishining samaradorligi xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati tartibga solinganligi va uning nazorati qat'iyligiga bog'liq bo'ladi. Ichki auditorlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi esa ko'p jihatdan ular ushbu nazorat va tartibga bo'ysunishiga bog'liq. Ba'zan barchasini oldindan nazarda tutib bo'lmaslik tufayli ekstremal sharoitlarda qaror qabul qilish zarurati paydo bo'ladi, ammo faoliyatning umumiy tartibini amalga oshirishi zarur bo'lgan amallar algoritmini oldindan belgilab qo'yish va tartibga solish samaraliroq hisoblanadi.

Ichki audit xizmatining faoliyati samaradorligini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$E\phi_{aloxida\ tuzilmaviy\ bo'linma} = \sum_{j=1}^n k_j X_j / q,$$

- Bu yerda, j – samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri;
- $k_j$  – samaradorlikning j-ko'rsatkichining solishtirma qiymati;
- $X_j$  – j-ko'rsatkichning miqdor bahosi;
- n – ko'rsatkichlar soni;
- q – yagona baholash shkalasi chegarasi miqdori.

Agar ichki audit xizmati tarkibiga bir nechta bo'linma kirsam, u holda samaradorlikning umumiy ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E\phi = (E\phi_1 + E\phi_2 + E\phi_3 + \dots + E\phi_p) / p,$$

2 Muallif tomonidan tuzilgan.

Bu yerda, p — bo'linmalar soni.

Yuqoridagi formulalar orqali ichki audit xizmati faoliyatining samaradorligi aniqlanadi va kelajakda uning ish natijalaridan yanada samarali foydalanishga erishiladi.

Budjet tashkilotlarining umumiy yillik faoliyati auditorlik tekshiruvi obyekti bo'lsa ham ishchi kuchining ozligi va vaqtdan oqilona foydalanish uchun auditning xalqaro standarti talablaridan kelib chiqqan holda muhimlik kabi ko'rsatkichlardan foydalanadi. Ichki audit tekshiruvi tizimi samarali ishlashi tahliliy ishlarning samaradorligiga, tahlilning chuqurligi va masala qanchalik har tomonlama qamrab olinganligiga bog'liq. Shu sababli tahlil jarayonida ma'lumotlarni to'plash va saqlashning yangi usullaridan — kompyuter texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tahlil ishlarini soddalashtirish uchun alohida usullardan foydalanib, ular asosida maxsus ishlab chiqilgan jadvallarni to'ldirish va keyinchalik jadval ko'rsatkichlari yordamida qiyoslash, baholash hamda umumlashtirish lozim.

Budjet tashkilotlarida ichki audit bo'limi tomonidan boshqaruv tizimining muhim elementi bo'lgan moliyaviy tahlilni o'tkazish darajasi ko'p jihatdan unda shakllantiriladigan va qo'llaniladigan axborot bazasining sifati hamda baholash usullariga bog'liq bo'lib, tadqiqot maqsadlariga mos bo'lishi talab etiladi. Bu, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi (2-jadval).

### 2-jadval. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish bosqichlari<sup>3</sup>.

№	Taomillar	Tahlilni o'tkazish maqsadi	Izoh
1.	Tadqiqot obyekti va subyekti hamda tahlil qilishning usul va shakllarini tanlab olinishi	Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilishning tadqiqot maqsadiga mosligi bo'yicha qaror qabul qilish	Ichki audit dasturida keltirib o'tish
2.	Ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash, umumlashtirish va rasmiylashtirish	Tahlil ishlarini mukammal olib borish uchun zarur axborot bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni ta'sir doirasi bo'yicha guruhlash, umumlashtirish va rasmiylashtirish.	
3.	Tahlil natijalarini talqin qilish, xulosa va takliflarni ifodalash	xo'jalik yurituvchi subyektlarni rivojlantirish, ko'zlangan natijalarga erishishi uchun olingan tahlil natijalarini iqtisodiy talqin etish orqali xulosa va takliflar ishlab chiqish	Ichki audit xizmati hisobotida aks ettirish
4.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xulosa va takliflardan foydalanish	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish uchun tahlil natijalari va taklif etilgan tavsiyalardan foydalanish	

Hozirgi kunda budjet tashkilotlari faoliyatini buxgalteriya hisobi va tahlil jarayonlariga ichki zaxiralarni safarbar qilish usullarini aniqlash sifatida qarashga oid tasavvurlar ancha o'zgardi. Shu bilan bir qatorda, uning maqsadi, ta'sir doirasi, resurslaridan foydalanishni optimallashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishga doir yangi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularning maqsadga muvofiqligini asoslashdagi roliga nisbatan ham o'zgardi.

Ma'lumki, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2015-yil 24-apreldagi „**Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida**“gi PF-4720-sonli<sup>4</sup> Farmonidaga muvofiq, 2015–2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va xalqaro audit standartlari hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, tashqi auditni o'tkazishi shart. Bundan ko'rinib turibdiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarni milliy standartlar asosida yuritishi va xalqaro standartlar asosida nashr ettirishi lozim. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli Qarorida qat'iy belgilangan.

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

4 <https://lex.uz/docs/-2635197>

3-jadval. "Toshkentdonmahsulotlari" AJning moliyaviy holatini ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish tartibi<sup>5</sup>.

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	To'lov qobiliyati koeffitsiyenti	1,07	1,09	1,05	0,98	1,023
2	O'z mablag'i manbalari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	0,06	0,08	0,05	-0,02	0,3
3	Xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti	0,01	0,03	0,01	0,01	0,04
4	Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	0,01	0,03	0,01	0,01	0,01
5	O'z aylanma mablag'larini qarzga olingan aylanma mablag'larga nisbati koeffitsiyenti	0,26	0,29	0,28	0,24	0,303
6	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti	0,80	0,81	0,58	0,64	0,625
7	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	0,43	0,44	0,40	0,36	0,39

Yuqorida keltirilgan 3-jadval ma'lumotlari asosida to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, o'z mablag'i manbalari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti, aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti, o'z aylanma mablag'larini qarzga olingan aylanma mablag'larga nisbati koeffitsiyenti, asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyentlarining o'zgarish dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, keyingi yillarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyentidan tashqari barcha koeffitsiyentlarda kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektning ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi ijobiy emasligini ko'rsatadi.

Ichki audit boshqaruv funksiyasi hisoblanib, boshqaruv bilan uzviy bog'langan, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ular o'zaro ta'sirda bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditning axborotni barcha bo'limlardan oladi, bu axborot chorak va yil yakunlari bo'yicha bo'limlarning faoliyatini tekshirish va yig'ma hisobot tayyorlash uchun asos bo'ladi.

Ichki audit tizimi boshqaruv maqsadlariga erishishni ta'minlashga xizmat qiladigan boshqaruv vositasidir. Buning uchun ichki audit xizmati korxonada boshqaruvni tahlil natijalari asosida tarkibiy bo'linma faoliyatiga berilgan baholar haqidagi axborot bilan ta'minlaydi. Subyekt rahbariyati ichki audit faoliyati natijalaridan mavjud resurslarni hisobga olgan holda va amaldagi qonunchilik doirasida joriy ishlarni boshqarish uchun foydalanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni aksiyadorlik jamiyatlarida ichki auditga ehtiyoj yuqoriligidan kelib chiqib, rahbariyat quyi boshqaruv tizimi va tashkilot faoliyatining kundalik nazorati bilan shug'ullanmaydi. Ichki audit esa ushbu faoliyat to'g'risida ma'lumot beradi hamda boshqaruvchilarning hisobotlari ishonchlik darajasini aniqlaydi. Ichki audit, avvalo, resurslar behuda sarflanishining oldini olish va korxonada uchun imkoniyatlarni aniqlash, o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kerak. Buning uchun mulk egalari va rahbariyatga tashkilot aktivlarining sezilarli darajada tejalishiga olib keladigan biznes tizimini boshqarish va tashkil etishni tartibga solish bo'yicha tavsiyalar berish zarur. Bundan tashqari, ichki auditning mavjudligi mulk egalari uchun zarur. Sababi shuki, ular jamiyatdagi bevosita ish yurituvdan uzoqlashadilar, boshqaruv professional menejerlar qo'lga o'tadi va oxir-oqibat kapitalning xalqaro bozorlarga qisqa yoki o'rta muddatda chiqish rejalarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xususan, eng katta fond birjalarining qonun-qoidalari subyektda ichki auditning mavjudligini talab etadi va ularni qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Ichki audit xizmatini tashkil etish bo'yicha xorij tajribasining mamlakatimizda qo'llanilishi ichki audit rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Воропаев Ю.Н. Оценка внутреннего контроля. // Бухгалтерский учет. 1996. №8. С. 17-20.
2. Жминько С.И. Внутренний аудит. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – 316 с.
3. Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари докторини олиши бўйича ёзган докторлик диссертацияси автореферати. – Т.:ЎзР. БМА. 2002. 42-б.

5 "Toshkentdonmahsulotlari" AJning 2008-2017 йиллардаги ҳисоботлари маълумотлари асосида ҳисобланган.



4. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Т.: Иқтисод-Молия, 2008. – 152 б.
5. Жминько С.И. Внутренний аудит. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. –316 с.
6. Макальская А.К. Внутренний аудит. Учебник. Практические пособие. 2-е издание. – М.: Дело и Сервис, 2001. – 112 с.
7. Дўсмуратов. Р.Д. Аудит асослари. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 612 б.

#### Internet manbalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi „Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida“gi PF-4720- sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сонли Фармони. [lex.uz](https://lex.uz)
3. <https://www.wirc-icai.org> - Western India Regional Council of The Institute of Chartered Accountants Of India расмий сайти.
4. <http://www.aasb.com> - International Auditing and Assurance Standards Board расмий сайти.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

